

JALOLIDDIN MANGUBERDI-BUYUK SARKARDA

*Boltaboyeva Muxlisa Alibek qizi**Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti
232-tarix (mamlakatlar va yonalishlar bo'yicha) guruhi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm davlatida Jaloliddin Manguberding o'rnini, hayoti va harbiy yurishlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Maqolada Jaloliddin Manguberdi o'lkamizda jasurligi, adolatparvarligi va Vatan uchun qilgan xizmatlari o'rganiladi.

Аннотация: В статье представлены сведения о месте, жизни и военных походах Джалалуддина Мангуберди в Хорезмском государстве. В статье рассматриваются храбрость, справедливость и заслуги Джалалуддина Мангуберди перед Родиной.

Annotatsion. This article provides information about the place, life and military campaigns of Jalaluddin Manguberdi in the Khorezm state. The article examines Jalaluddin Manguberdi's bravery, justice and services to the Motherland.

Kalit soʻzlar: "Jaloliddin Manguberdi", "G'azna", "Anushteginiylar", "Mog'ullar", "Chingizxon", "Oychechak", "Sind", "Muhammad Xorazmshoh", "mank" "Qutbiddin O'zloqshoh".

Ключевые слова: «Джалалуддин Мангуберди», «Газна», «Ануштегинис», «Монголы», «Чингиз-хан», «Ойчечак», «Синд», «Мухаммад Хорезмшах», «Манк», «Кутбиддин Озлагшах».

Key words: "Jalaluddin Manguberdi", "Gazna", "Anushteginis", "Mongols", "Chingiz Khan", "Oychechak", "Sind", "Muhammad Khorazmshah", "mank" "Qutbiddin Ozlagshah" .

Kirish. Jaloliddin Manguberdi Xorazm o'lkasida tug'ilgan buyuk sarkardadir. Xorazmshoxlar davlatining songi hukmdori. Anushteginiy xorazmshoxlardan. Mog'ullarga qarshi kurashgan mohir sarkarda. Jaloliddin Manguberdi Vatan ozodligi uchun olib borgan kurashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Jaloliddin Manguberdi qadimgi davrdan 13-asr o'rtalarigacha Xorazm hududida mavjud bo'lgan Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220—31), mohir sarkarda. O'zbek davlatchiligi tizimidagi yirik sulolalardan biri — anushteginiylardan. Xorazmshohlardan Muhammad (1182—1220) ning katta o'g'li. Onasi — Oychechak turkman kanizaklardan bo'lgan. Jaloliddin burnida xoli (mank) bo'lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib "Manguberdi" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan (1215). Biroq Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat'iy noroziligi sababli Muhammad Xorazmshohning kenja o'g'li Qutbiddin O'zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkarda ekanligini namoyish etgan.[3]

Adabiyotlar tahlili: 1221-yilning boshida Jaloliddin Manguberdi va shaxzodalar Oqshox, O'zloqshoxlar bilan Ko'xna Urganch (Gurganch)ga kelib, shahar mudofaasiga kirishadi. Lekin shahardagi Ko'hna Urganch Qipchoq amirlari Turkon Xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e'lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqad uyushtirmoqchi bo'ladi. Bu voqeadan keyin Jaloliddin 1221- yil 10- fevralda Xo'jand hokimi Temur Malik maslahati bo'yicha 300 nafar sinalgan suvoriylar bilan Urganchni tark etib, Xurosonga yo'l oladi. Xuroson hududida Jaloliddin Manguberdi Nishopur, G'azna, Niso shaharlar atrofida mo'g'ullarga qarshi qaqshatqich zarbalar beradi. Ayniqsa, 1221- yilda shimoliy Afg'onistonning Lagar daryosi bo'yidagi Parvon dashti yaqinida 30 minglik mo'g'ul qo'shini Jaloliddin tomonidan tor-mor etilganligi Chingizxonni hayratga soldi. Endi Chingizxonning o'zi Jaloliddinga qarshi qo'shin tortdi. Fapfiz qal'asi yaqinida Jaloliddin Chingizxon qo'shinining ilg'orini tor-mor keltirdi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi.[4]

Tahlil va natijalar: Umuman olganda, Jaloliddin Manguberdi Sind (Hind) daryosidan o'tganidan so'ng ikki yil davomida Kashmirdan boshlanadigan Jelum daryosidan to arab dengizigacha bo'lgan tarqoq va urush xolatidagi maxalliy hind va musulmon mulklarini birlashtirdi. Jaloliddin Manguberdi hozirgi Pokistondagi Kallar Kaxar shahri yaqinida bir tog' etagidagi qal'ani o'zining qarorgohi qilib olgan. Bu qal'a xarobalari bugungi kunda maxalliy axoli tomonidan Samarqand qal'asi, qal'a joylashgan tog' esa Samarqand tog'i deb nomlanadi. Jaloliddin Manguberding 20 metrlik balandlikdan tezoqar Sind (Hind) daryosiga sakragan joyi mahalliy urdu tilida "Ghota tarap" (Ot sarash) deb nomlanadi. Oradan 800 yil vaqt o'tgan bo'lsa ham, mahalliy aholi tomonidan bu nomning saqlanib kelishi, ko'plab tarixiy asarlarning yozilishi pokistonliklarda uni Islom qaxramonlari sifatida bilishidan dalolat beradi.[1]. Jaloliddin Manguberdi xayoti va tarixini chuqur o'rgangan olimlardan biri bu mashxur rus sharqshunos olimi V. V. Bartold hisoblanadi. U o'zining "Туркестан в эпоху монгольского нашествия" asarida ilk bor O'rta Osiyo tarixini, Xorazmshox-anushteginiylar tarixini va Jaloliddin Manguberdi faoliyatini manbalar asosida, ijtimoiy va maishiy sharoitlarga e'tibor bergan xolda yoritadi.[2]

Jaloliddin Manguberdi o'zining qisqa umri davomida 20 dan ortiq janglarda ishtirok etgan. Jaloliddin Manguberdi o'tkazilgan janglarning faqat ikkitasidagina, ya'ni 1221- yildagi Sind daryosi bo'yidagi (Nilob) jangida Chingizxon va uning butun oilasi boshchiligidagi qo'shından hamda 1230- yildagi Yassi chaman maydonidagi xiyonat yo'lini tutgan qardosh va dindosh musulmon bilan bo'lgan janglardagina janglardagina mag'lubiyatga uchragan. Sulton Jaloliddin haqida "Tarixi jahonkusho" asari muallifi Alouddin Atomalik Juvayniy shunday deydi; "Sulton Muhammadning o'g'illari orasida yosh jihatidan kattasi, jasorat va bilim jihatdan ustuni, saltanat toji va ilohiyot chirog'ining nuri Sulton Jaloliddin edi. Otasi to'g'ri yo'ldan uzoqlashganida va xato ishlar qilgan paytlarida ularni yuziga aytardi" Jaloliddin Manguberding noziktab inson bo'lgani ham manbalarda keltirilgan. Xususan, eronlik olim va shoir Rizoqulixon Xidoyat (1800-1871) ning "Maxma al-fusaxo" nomli tazkirasida quyidagi she'r muallifi Jaloliddin Manguberdi ekani ta'kidlanadi"

"Jangda xuddi temirdek, bazmda misli mummiz,
Do'stga marxamatli, g'animga esa shumimiz,
Ulug'vorligimizdan Shomga insof eltarlar,

Хайбатимиз dastidan Rumga zunnor eltarlar”[3]

Xorazmshox Jaloliddin taniqli ma’rifatparvar olim Mukarrabiddin Muxammad ibn Ibrohim Paxlavon al- Xorazmiy (vaf. 1228)ga Isfaxondan otasi sulton Alouddin Muxammad xotirasi uchun katta madrasa qurishni topshirgan va bu ishga 30 ming dinor mablag’ ajratgan. Bu mablag’dan tashqari yana Iroqdan keladigan xirojlardan bir qismi “madrasa qurilishini tamomlash uchun qo’shimcha mablag’lar berilgan. Sulton Jaloliddin xijriy 623 (1226) yilda Tiflis hamda sharqiy Gurjistonni fatx etganida bu yerlarda o’z nomidan tangalar zarb eta boshladi. Tiflis shaxri olingan vaqtda malika Rusudan xazinasi sulton Jaloliddin qo’lga tushgach, u malika Tamar, Georgiy Lasha va Rusudan nomlariga tangalarga o’z nomini yozdirib, qaytadan chiqardi. Jaloliddin xijriy 619 (1217) yilda mo’g’ullardan chekinib, Hindistonga borganida maxalliy hukmdorlar Nosiriddin Kubochi (1205- 1227) va Shamsiddin Eltutmish Muizzim (1211- 1236), rajputlar va xakkarlar o’z imkoniyatidan kelib chiqib, sulton Jaloliddin nomiga kumush va mis tangalar zarb etdi. Jaloliddin Xindistondaligida o’z nomidan kumush tangalar zarb etdi, barcha mahalliy mulklarda uning nomiga xutba o’qildi. [5]

Xulosa. Men ushbu maqolada Jaloliddin xorazmshoxlar davlatida chuqur iz qoldirgan sarkarda sifatida yoritiladi. Uning harbiy yurishlari, hayoti turli ma’lumotlar orqali o’rganildi. O’z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo’g’ul istilochilariga qarshi kurashgan so’ngi xorazm shoxi sifatida Xorazm vohasida ulug’lanadi. Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O’zbekistonning faxr-u g’ururidir. Jaloliddin xotirasi nafaqat bizda balki, jahon hamjahiyati uchun ham e’tiborga molikdir. Masalan, Turkiya bilan O’zbekiston hamkorlikda Jaloliddin qabri joylashgan hududda qazishma ishlari olib borilib, qabri joylashgan tepalikda ramziy maqbara o’rnatildi. Bu esa Jaloliddin Manguberdi tarixi yo’qolib ketmasligi, u haqidagi ma’lumotlarni kelasi avlod uchun bus- butun yetkazishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. B.Abdrimov// Xorazmiylar izini izlab//Toshkent 2021.
2. B. Abdrimov// Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha// Toshkent 2021, 100-101-betlar
3. Q. Masharipov// Jaloliddin Manguberdi//Toshkent 2021.
4. R. Shamsutdinov, X.Mo’minov//O’zbekiston tarixi//Toshkent 2013
5. Z. Bunyodov//Anushteginiy Xorazmshohlar davlati//Toshkent 2023, 196-197 va 215-betlar.